



Organization of the activities of a legal intern and its specific features

Fazliddin ZARIPOV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

15 April 2024

Accepted 25 April 2023

Available online

25 May 2024

Keywords:

organizing the activities of a legal intern,
"professional internship",
personal work of an intern in Italy,
individual regulations of each stage of the internship,
daily routine during internship,
report,
Lithuania,
written report,
organizing the activities of a legal assistant,
Russia.

ABSTRACT

In this article, the established rules and regulations for conducting internships in the legal profession are discussed, including the procedures for organizing the activities of a legal intern in the structure of the legal profession, as well as considerations regarding the necessity or non-necessity of carrying out document preparation tasks that are suitable for additional time allocation for legal internships. Additionally, the practical suitability of the requirements imposed on interns for formalizing internships is examined, as well as deliberations on the degree of protection of the rights of legal interns and the alignment of their obligations according to the intern's activities, with additional recommendations provided. Furthermore, in conjunction with the legal intern, the organization of the activities of a legal assistant, the development of their rights and obligations, and proposals for amending current legislation and introducing additions are suggested based on the experience gained in foreign countries.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp29-35>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Advokat stajyori faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Kalit so'zlar:

advokat stajyori faoliyatini tashkil etish,
"kasbiy stajirovka",
Italiyada stajyorning shaxsiy ishi,
har choraklik stajirovkaning yakka tartibdagi rejalari,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada advokat stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tash yuzasidan amaldagi belgilangan tartib-qoidalar muhokama qilinadi, shuningdek, advokat stajyori uchun ortiqcha vaqt sarflashga to'g'ri keladigan hujjatbozlik ishlari yuzasidan fikr yuritilib, ushbu turdagi hujjatlarni stajyor tomonidan yuritish

¹ Independent researcher, Tashkent State University of Law.

stajirovka o'tash davrida
kundalik,
referat,
Litva,
yozma hisobot,
advokat yordamchisining
faoliyatini tashkil etish,
Rossiya Federatsiyasi,
Armaniston Respublikasi.

qanchalik zarur yoki zarur emasligi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birgalikda, stajirovka o'tashni rasmiylashtirishda stajyorga qo'yiladigan talablarning amalda muvofiqligi ko'rib chiqiladi hamda advokat stajyorining huquqlari ta'minlanganligi darajasi hamda uning majburiyatlar stajyor faoliyatiga muvofiq kelishi yuzasidan fikr yuritilib, qo'shimcha takliflar beriladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada advokat stajyori bilan birgalikda advokat yordamchisi faoliyatini tashkil qilish, uning huquq va majburiyatlarini ishlab chiqish hamda amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda takliflar beriladi.

Организация деятельности адвоката стажера и его особенности

Ключевые слова:

организация
деятельности
адвокатского стажера,
«профессиональная
стажировка»,
личная работа стажера
в Италии,
индивидуальные правила
каждой стажировки,
ежедневный режим во
время стажировки,
реферат,
Литва,
письменный отчет,
организация
деятельности
адвокатского помощника,
Российская Федерация,
Республика Узбекистан.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются установленные порядок и правила проведения стажировки в адвокатуре по организации деятельности адвоката стажера, а также рассматривается обсуждение необходимости или ненужности выполнения работ по подготовке документов, требующих дополнительного времени для адвокатской стажировки. В связи с этим, также проводится анализ соответствия требованиям, предъявляемым к стажерам для официализации стажировки, обеспечение уровня прав адвоката стажера и соответствие его обязанностей деятельности стажера, с последующими дополнительными предложениями. Кроме того, в данной статье предлагаются рекомендации по организации деятельности адвоката помощника вместе с адвокатским стажером, разработке его прав и обязанностей, а также внесению изменений в действующее законодательство и добавлению поправок на основе опыта зарубежных стран.

Bugungi kunda respublikamizda **5 500** dan ortiq advokatlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda har **7 200** aholiga 1 ta advokat to'g'ri kelmoqda. Xalqaro standartlarga ko'ra esa, ushbu past ko'rsatkich hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich Amerikada har **500** aholiga, Italiyada – har **265** aholiga, Germaniyada – har **516** aholiga, Rossiyada – har **1 870** aholiga, Qozog'istonda – har **3 932** aholiga 1 advokat to'g'ri keladi.

Mazkur raqamlar bugungi kunda yuridik yordam olishga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini, shuningdek advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hozirgi davrda mazkur masalalarni dolzarbligini, advokatlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqaligina ushbu sohaning jozibadorligiga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida: Yangi O'zbekiston strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutishi, Advokatlar palatasi huzurida Advokatlar akademiyasini tashkil etish, advokatlik

maqomini olish uchun qo'yilgan stajirovka muddati haqidagi talabni bekor qilish, "Mustaqil advokatura konsepsiyasi"ni ishlab chiqish, tergov va sudning barcha bosqichlarida advokatning rolini yanada oshirish kabi maqsadlar muhimligi va ularni amalga tatbiq etish har qachongidan zarurligi haqida so'z boradi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida advokatura sohasida mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida yanada takomillashtirish hamda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish dolzarb vazifalardan biridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, advokatura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim maqsadi advokaturaning jamiyatdagi nufuzini oshirish, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini himoya qilishda yuridik yordam sifati va soni oshirish, shuningdek odil sudlovni amalga oshirishda advokaturaning o'rnini mustahkamlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs advokatning stajyori bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs advokatning stajyori bo'lishi mumkin emas.

Stajirovka advokatlik tuzilmasida o'taladi. Advokatning stajyori o'z faoliyatini advokat rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajyor advokatlik faoliyati bilan mustaqil ravishda shug'ullanishga haqli emas.

Advokat stajyorining mehnat sharoitlari qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. Advokat stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

S.I. Ojegovning fikricha "stajyor" termini "stajyorlik tuzilmasiga yozilgan shaxsni bayon qiladi. "Staj" termini "yangi kelgan kishilarning kasbiylik sohasida tajriba olish va stajyorning umumiy baholash hamda stajyorlik muddati" degan ma'noda ishlab chiqariladi. Bu holda, advokat stajyorining faoliyati advokat kasbida tajriba olish uchun amalga oshiriladi.

A.N. Chashin advokat stajyorining xususiyatlarini ta'minlovchi atamasining ma'nosini – "advokatlik tuzilmalari bilan tanishgan shaxs" sifatida beradi.

R.G. Melnichenko advokat stajyori – "advokatlikka tayyorlash markazlari ishchisi, asosiy maqsadi – advokatlik kasbiyligi malakasini olish" deb ta'riflaydi.

Stajyor tomonidan advokat maqomiga ega bo'lishga tayyorlanish va uning kasbiy bilimlarini hamda ko'nikmalarini hosil qilish stajirovkaning asosiy vazifasidir.

Advokat stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1928, 2009-yil 27-mart) asosida advokat stajyori faoliyati tartibga solinadi. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs stajirovkani qaysi advokatlik tuzilmasida o'tash niyatida bo'lsa, o'sha advokatlik tuzilmasiga ariza bilan murojaat qiladi. Talabgor stajirovkani yuridik maslahatxonada o'tash uchun O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- talabgor to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan shaxsiy varaqa;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining nusxasi;

- tarjimai hol;
- oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom (nusxasi olinib, asli qaytariladi);
- mehnat daftarchasi, birinchi marta ishga kirayotgan talabgorlar bundan mustasno;
- o'qish (avvalgi ish) joyidan tavsifnoma.

Talabgor tomonidan boshqa hujjatlar ham taqdim etilishi mumkin.

Yuqoridagi kabi qoida va talablarni muhokama qiladigan bo'lsak, stajyor uchun keraksiz bo'lgan qog'ozbozlik ishlariga ko'p urg'u berilgan.

Jumladan, advokatlik tuzilmasida har bir **stajorning shaxsiy ishi** yuritilishi qoidasi belgilab qo'yilgan, advokat stajyori tomonidan yuqoridagi hujjatlarni yuritish ortiqcha vaqtni oladi va stajyordan asosiy e'tiborni ish o'rganishga qaratilmasdan, stajirovkadan ko'zlangan maqsaddan chetga chiqishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, advokat stajyori stajirovka rahbari bilan birgalikda advokatlik tuzilmasining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan **har choraklik stajirovkaning yakka tartibdagi rejalarini** tuzishi zarur ekanligi belgilab qo'yilgan.

Holbuki, har choraklik stajirovkaning yakka tartibdagi rejalarini tuzish ortiqcha hujjatbozlikni talab qiladi, natijada stajyor o'z ustida ishlab, kasbiy salohiyatini oshirishdan ko'ra, ko'proq e'tiborini shu kabi hujjatlarni to'ldirishga qaratishga majbur bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, advokat stajyori uchun yana bir muhim talab bu **stajirovka o'tash davrida kundalik** yuritib, unga stajirovka rahbarining topshiriqlarini va bajargan ishlari to'g'risidagi hisobotni yozib borish lozim hisoblanadi. Aslida esa stajirovkadan asosiy maqsad stajirovka davrida stajyor advokatlik faoliyatining barcha yo'nalishlaridagi sohalarda kasbiy bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi bo'lsa-da, keltirib o'tilgan hujjatlar, kundalik va shu kabi qog'ozlarni to'ldirib borish stajorning rivojlanishi va kasbiy yetuklikka erishishi yo'lida to'sqinlik qiladi.

Mazkur Nizomda ko'rsatib o'tilgan stajyor uchun eng katta talab bu stajirovka davrida stajyor kelgusi ishdagi ixtisoslashuvni hisobga olgan holda huquq va protsessning dolzarbroq masalalari bo'yicha ikkita **referat** tayyorlash majburiyatidir.

Ushbu Nizom talabiga ko'ra, tayyorlangan referatlar advokatlik tuzilmasining rahbar organi oldida keyinchalik himoya qilinishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Nizom talabiga ko'ra, ushbu ikkita referat himoya qilishi kerak ekanligi sababli ham albatta mukammal tarzda tuzilishi va yozilishi zarur hisoblanadi. Bu kabi hujjatni tayyorlash asosan vaqt masalasiga borib taqaladi, chunki ushbu referatlar stajirovka boshidan oxirigacha tayyorlanishini talab qiladi. Bu kabi katta hajmdagi hujjatlar birinchidan stajorni zimmasiga ortiqcha yuk, ikkinchidan advokatlik bilim va ko'nikmalarini o'rganayotgan shaxs uchun qimmatli vaqtni hujjat to'ldirish bilan o'tkazish hisoblanadi.

Shuningdek, stajyor zimmasiga qo'shimcha ravishda yana stajirovkaning barcha yakka tartibdagi rejalarini bajarib bo'lganidan keyin o'zi tomonidan ushbu ishlarning bajarilish yakunlari aks ettirilgan **yozma hisobot** tayyorlashi hamda ushbu hisobot stajirovka rahbari tomonidan tasdiqlanishi lozimligi shart qilib ko'rsatilgan. Bu kabi talablar stajyor uchun orticha yuklama hamda vaqt sarflashga olib keladi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyoning aksariyat davlatlaridan farqli ravishda Italiyada advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun **"kasbiy stajirovka"** muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Italiyada mavjud *advokatlik stajirovkasining o'ziga xos xususiyati* Advokatlar Kengashining ruxsati bilan stajirovka ikki xil tashkilotda: *xususiy yuridik firmada* yoki *davlat hokimiyati organlarida* bir vaqtning o'zida o'tkazilishi mumkin.

Italiyada 32 ta universitet va institutda yuridik fakultet mavjud. Qoidaga ko'ra, yuridik ta'lim 4 yil davom etadi. 21 ta og'zaki imtihon topshirgandan so'ng huquqshunos talabaga huquqning dolzarb nazariy masalasini o'rganishga bag'ishlangan yozma ishdan (tesi di laurea) iborat bo'lgan "esame di laurea" yakuniy imtihonini topshirishga ruxsat beriladi.

Advokat bo'lmoqchi bo'lgan shaxs – "practicante procuratore" advokatlik idorasida advokatlik amaliyotidan o'tishi kerak. Bu unchalik oson emas, chunki yuridik amaliyotni tashkil etish bilan shug'ullanadigan advokatlar unchalik ko'p emas. 2 yildan 6 yilgacha bo'lgan amaliyotdan so'ng ariza beruvchi "esame di procuratore" unvonini olish uchun davlat imtihonidan o'tishi kerak. Ushbu imtihon har yili dekabr oyida 26 ta viloyat sudlaridan birida topshiriladi. Qoidaga ko'ra, nomzodlarning 60% birinchi urinishda o'tadi.

Italiyada advokatlikka talabgor amaliyotga qabul qilinish uchun quyidagi hujjatlar kerak:

- 1) huquqshunoslik bo'yicha bakalavr, magistr yoki ilmiy daraja;
- 2) advokatlikka talabgorning *bir yarim yil* davomida amaliyot o'taganlik to'g'risidagi tavsifnomasi.

Shuningdek, advokat stajyori bo'lish uchun ariza beruvchi advokat stajyorlari reyestrda ro'yxatdan o'tishi kerak.

Shveysariyada huquq universitetlarida nazariy kursni tamomlagandan so'ng abituriyent advokat huzurida, sudda yoki istisno tariqasida davlat organida amaliy mashg'ulotlardan o'tishi kerak. Ko'pgina kantonlarning qonunlari amaliy mashg'ulotlar universitet joylashgan kantonda o'tkazilishini talab qiladi. Amaliy mashg'ulotlar muddati, kantonlarning qonunchiligiga qarab, 6 oydan 2 yilgacha. Masalan, Bern kantonida amaliyot 18 oyni tashkil qiladi. Shulardan 9 oyi advokat yordamchisi sifatida, 9 oyi sudda. Ushbu muddatdan so'ng 1 yil ichida nomzod advokatura kanselyariyasida ishlashi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni tugatgandan so'ng nomzod ikkinchi imtihondan o'tishi kerak – mustaqil kasbiy faoliyat, shu jumladan advokatlik, sud va boshqaruv bilan shug'ullanish huquqi uchun. Imtihon 9 kishidan iborat komissiya tomonidan qabul qilinadi, ulardan 3 nafari huquqshunos bo'lib, 10 soatlik yozma test va og'zaki imtihondan iborat. Mazkur imtihondan o'tgach, nomzod advokatlik faoliyati uchun patent olishi hamda to'laqonli advokat bo'lishi mumkin.

Litva davlatining tajribasini muhokama qiladigan bo'lsak, Litva Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga ko'ra, advokat yordamchisi – bu mazkur Qonunda belgilangan tartibda Litvada advokat yordamchilari ro'yxatiga kiritilgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorlanayotgan jismoniy shaxs ekanligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Advokat yordamchisining stajirovka muddati *ikki yil* etib belgilangan. Ushbu muddatga advokat yordamchisi amalda shug'ullanmagan yoki advokat yordamchisining faoliyati to'xtatilgan vaqt (oddiy dam olish vaqtidan tashqari) kirmasligi belgilab qo'yilgan. Yordamchi advokatning amaliyot vaqti esa amaliyotni baholashda amaliyot rahbari tomonidan tasdiqlanishi shart qilib qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga nazar tashlar ekanmiz, Advokat yordamchisining ish tartibi to'g'risidagi nizomga binoan, advokat yordamchisi oliy, tugallanmagan oliy yoki o'rta yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs yordamchisi bo'lishi mumkinligi va muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilmagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun sudlangan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs advokat yordamchisi bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Armaniston Respublikasi qonunchiligiga kelsak, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasiga ko‘ra, advokat yordamchi yoki yordamchilarga ega bo‘lishga haqli hisoblanadi, shuningdek, sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan bo‘lsa, sudlanganligi tugamagan yoki olib tashlanmagan shaxslar advokat yordamchi bo‘lishi mumkin emas deya belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, stajyor-advokat o‘z faoliyatini advokat rahbarligida, yuridik amaliyot bilan bog‘liq individual topshiriqlarini bajargan holda amalga oshirishi kerak ekanligi, stajyor mustaqil ravishda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega emasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, advokatning stajyori mijozning ma‘lumotlarini oshkor qilishga haqli emasligi va advokat ishlayotgan tashkilot tomonidan yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan advokat bilan mehnat shartnomasi tuzish yo‘li bilan ishga qabul qilinishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan asoslarga ko‘ra xulosa qiladigan bo‘lsak, advokat stajyorining asosiy vazifasi bu advokatlik ish tajribasini orttirish, o‘z ustida ishlash hamda stajyor tomonidan advokat maqomiga ega bo‘lishga tayyorlanish va uning kasbiy bilimlarini hamda ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakatimiz qonunchiligidagi advokat stajyori faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganar ekanmiz, shu o‘rinda har bir davlat bu borada o‘z tajribasiga ega ekanligini inobatga olgan holda, rivojlangan davlatlarning qonunlariga nazar tashlash orqali ularning ijobiy taraflarini qonunchiligimizga joriy etish borasida bir qator quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Birinchidan, advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani taqdim etishi lozim, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o‘rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma‘lumotnomani taqdim etishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, talabgorning arizasini ko‘rib chiqish tartibi va muddatlarini belgilash, ko‘rib chiqish natijasini aniqlash maqsadida stajyorlik uchun talabgor bo‘lgan shaxsning arizasini hududiy boshqarma tomonidan ko‘rib chiqish muddatini belgilash kerak, misol uchun talabgorning arizasi kelib tushgan kundan e‘tiboran *besh ish kuni* muddatida advokatlik tuzilmasi (hududiy boshqarma) tomonidan ko‘rib chiqilishi va ushbu arizaga nisbatan talabgorni suhbatga chaqirish yoki suhbatga chaqirishni rad etish haqida qaror qilishi va shu kuni bu haqida talabgorni xabardor qilishi, o‘rganib chiqish natijalariga ko‘ra advokatlik tuzilmasi (hududiy boshqarma) talabgorni suhbatga chaqirish yoki suhbatga chaqirishni rad etish haqida qaror qiladi va shu kuni bu haqda talabgorni xabardor qilishi lozim.

Uchinchidan, stajyor stajirovka o‘tash uchun hududiy boshqarmaga murojaat qilgan vaqtda undan talab qilinadigan hujjatlarning hajmi kamaytirilishi lozim, jumladan, talabgordan ariza bilan birgalikda quyidagi hujjatlar talab qilinishi kerak:

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining (identifikatsiyalovchi ID-kartasi) nusxasi;

– oliy yuridik ma‘lumot to‘g‘risidagi diplom nusxasi;

– sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to‘g‘risida ma‘lumotnoma;

– oxirgi ish joyi bo‘yicha tasdiqlangan qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno.

To'rtinchidan, stajyor uzoq muddat ishda bo'lmagan asoslarni yana ham aniqlashtirish zarur, jumladan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish ta'tillari, bola parvarishlash ta'tillari, ishdan ajralgan holda malaka oshirish, stajirovkaga rahbarining litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilishi yoki tugatilishi kabilarni hisobga olgan holda, agar ushbu asoslar sababli stajyor uzoq muddat ishda bo'lmasa, ushbu muddatni stajirovka muddatiga kiritmaslik zarur.

Beshinchidan, agar stajirovka rahbarining advokatlik maqomi, advokatlik faoliyati uchun litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilishi yoki tugatilish holati vujudga kelsa, bunday holatga hozirgi qonunchilik normasida yechim ko'rsatilmagan, shu sababli ham agar shu kabi holat vujudga kelsa, stajirovkaning ma'lum muddati o'talmay qolgan taqdirda, stajyorning tanloviga ko'ra stajirovka ana shu davrga uzaytirilishi yoki stajyor boshqa advokatlik tuzilmasida yoki boshqa advokat rahbarligida stajirovkani davom ettirishini ta'minlash kerak.

Oltinchidan, stajyorning o'rindoshlik asosida ishlashining taqiqlanishi ko'plab talabgorlarning advokaturaga kirishiga to'siq hisoblanadi. Stajyorning **asosiy ish joyi saqlangan holda advokatlik tuzilmasida o'rindoshlik asosida ishlashi mumkinligini belgilash** advokaturaga malakali kadrlar kirib kelishini ta'minlaydi.

Yettinchidan, stajirovka o'tash davrida stajyorga referatlar tayyorlash hamda kundalik yuritish kabi qo'yilgan talablarni bekor qilish lozim. Mazkur talablar ortiqcha qog'ozbozlik hisoblanib, stajyor uchun orticha yuklama hamda ortiqcha vaqt sarflashga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 349-I-sonli "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni;
2. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Sh.Mirziyoyev. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021;
3. "Advokat stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 1928, 2009-yil 27-mart).
4. "Advokat yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 1929, 2009-yil 27-mart);
5. W.E.J. Tjeenk Willink 2011, Dutch law. Bern. 126 p;
6. Advocacy – Professionalism – CFA Society Italy, 2022;
7. Girard. Histoire de organisation judiciaire de Remains, t. I, Paris, 2016. 288 p;
8. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. Около 100000 слов, терминов и фразеологических выражений. М.: Оникс, 2017;
9. Чашин А.Н. Стратегия и тактика адвокатской деятельности. М.: Дело и Сервис, 2016. С. 133;
10. Мельниченко Р. Г. Адвокатура: Учебное пособие для студентов вузов. М.: Интра, 2017. С. 274.
11. Lex.uz;
12. <https://eseimas.lrs.lt/portal/legalAct>;
13. <https://be5.biz/pravo/a002/17.html>.